

## BIOXILMA - XILLIK VA ULARNI MUHOFAZA QILISH (YAKKABOG' TUMANI MISOLIDA)

**Xo'jaqulov S.U** – Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi. O'zbekiston.

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi bioxilma- xillik holati, uning tarkibiy jihatlari, tahdid ostidagi turlar hamda muhofaza choralarning samaradorligini tahlil qilingan. Maqolada bioxilma - xillikni saqlashning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini ilmiy asoslab berishga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Bioxilma - xillik, Yakkabog' tumani, ekotizim, Qizil kitob, muhofaza choralari, endemik turlar, ekologik barqarorlik.*

## БИОФИЛЬМА - ЧИЛИК И ИХ ЗАЩИТА (НА ПРИМЕРЕ РАЙОНА ЯККАБОГ)

**Хужакулов С.** *Преподаватель Каршинского государственного университета. Узбекистан*

**Аннотация:** В статье анализируется состояние биоразнообразия Яккабагского района Кашкадарьинской области, его структура, виды, находящиеся под угрозой исчезновения, и эффективность мер по охране. Цель статьи – научно обосновать экологическую, экономическую и социальную значимость сохранения биоразнообразия.

**Ключевые слова:** Биоразнообразие, Яккабагский район, экосистема, Красная книга, меры по охране, эндемичные виды, экологическая устойчивость.

## BIOPHILMA - CHILIC AND THEIR PROTECTION (IN THE EXAMPLE OF YAKKABOG' DISTRICT)

**Khojakulov S.U.** *is a teacher at Karshi State University. Uzbekistan.*

**Abstract:** This article analyzes the state of biodiversity in Yakkabag district of Kashkadarya region, its structural aspects, threatened species, and the effectiveness of conservation measures. The article aims to scientifically substantiate the ecological, economic, and social importance of biodiversity conservation.

**Keywords:** Biodiversity, Yakkabag district, ecosystem, Red Book, conservation measures, endemic species, ecological sustainability.

Bioxilma - xillik – yer biosferasining barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Bioxilma-xillik (yoki biologik xilma-xillik) — bu Yer yuzidagi tirik organizmlar va ularning yashash muhitlarining xilma-xilligini bildiradi. U tabiiy muhitning barqarorligini saqlab turuvchi eng muhim omillardan biridir.

Bioxilma-xillik turlari: Genetik xilma-xillik — bir tur ichidagi genlar farqliligi. Masalan, bug‘doyning turli navlari yoki itlarning turlari. Turlar xilma-xilligi — ma’lum bir hududda yashaydigan turlar soni va ularning nisbati. Masalan, o‘rmonlarda daraxtlar, qushlar, hasharotlar, hayvonlar kabi turli turlar yashaydi. Ekotizim xilma-xilligi — turli yashash joylari va ekotizimlarning (o‘rmon, cho‘l, dengiz, tog‘ va hokazo) xilma-xilligi.

Bioxilma-xillikka tahdidlar, o‘rmonlarning kesilishi, ifloslanish, iqlim o‘zgarishi, qishloq xo‘jaligi va sanoatning haddan tashqari kengayishi, noyob turlarning yo‘q bo‘lib ketishi.

O‘zbekiston Respublikasi ham xalqaro shartnomalarga (masalan, “Bioxilma xillik to‘g‘risida” Konvensiyasi) muvofiq, mintaqaviy darajada ham bioxilma xillikni saqlashga intilmoqda. Shu jihatdan bu borada viloyatlar, ayniqsa, tabiiy resurslarga boy bo‘lgan tumanlarning roli oshib bormoqda. Yakkabog‘ tumanining iqlim-sharoit, relyef va ekotizimlari xilma – xilligi tufayli u O‘zbekistondagi eng boy bioxilma xillikga ega hududlardan biri hisoblanadi. Biroq, so‘nggi yillarda inson faoliyati, sug‘orish tizimlarining noto‘g‘ri boshqarilishi, yaylovlarning buzilishi, aholi punktlarining ko‘payishi kabi omillar tufayli tabiiy muhitga bosim ortib bormoqda.

Yakkabog‘ tumanidagi biologik xilma xillikni saqlash uchun ilmiy asoslangan monitoring tizimini joriy etish, aholini ekologik tarbiyalash hamda qonuniy tartibga solish choralarini kuchaytirish zarur.

Yakkabog‘ tumanida tog‘, cho‘l, dasht hamda suv havzalari kabi turli ekotizimlar mavjud bo‘lib ular har xil biologik turlarning yashash muhitini ta‘minlaydi. Misol uchun, Yakkabog‘ tumanidan oqib o‘tuvchi daryo havzalarida suv qushlari, baliq turlari, o‘simliklar ko‘plab uchraydi. Misol uchun, Anas platyrhynchos qushi, karp, somon baliqlari, hamda lotus, nymphaea kabi suv o‘simliklari bunga yaqqol dalil. Shuningdek, tuman hududida “Qizil kitob” ga kiritilgan Tulipa kaufmanniana (Qashqadaryo lolasi) kabi o‘simliklar ham saqlanib qolgan. Tog‘li hududlarda bozg‘on, qo‘y, tovuq, qushlar va endemik o‘simliklar uchraydi. Dasht va yaylov zonalari esa qo‘y, echki, tovuq, quyon, va muhim

o'simliklar (masalan, *Artemisia absinthium*, *Ferula caspica*) uchun yashash joyi hisoblanadi. Bu ekotizimlar bir – biriga bog'liq va ularning har biri bioxilma xillikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Agar bir ekotizim buzilsa, boshqa ekotizimlar ham ta'sirlanadi.

Tumanda yovvoyi o'simliklar va hayvonot dunyosi turli-tuman: tog' o'rmonlari, yaylovlar, dorivor o'simliklar hududlari mavjudligi bilan ajralib turadi.

O'rmon xo'jaligi tomonidan aynan «tog' bioxilma-xilligini asrash loyihasi» amalga oshirilmoqda. Bu hududdagi o'simlik va hayvonot turlarini saqlashga qaratilgan. Hududdagi geografik sharoitlar — tog'lar, cho'l-dasht o'zaro aralashganligi, iqlim o'zgaruvchanligi — bioxilma-xillikni kuchaytiradi.

Yakkabog' tumani bioxilma-xilligi jihatidan muhim hududdir. Bu hududda tog' va o'rmon ekotizimlari, dorivor va yovvoyi o'simliklar, hayvonot dunyosi mavjud bo'lib, ularni saqlash va barqaror foydalanish katta ahamiyatga ega. Biroq, ekologik tahdidlar — o'rmonlarning kamayishi, degradatsiya, iqlim o'zgarishi — bioxilma-xillikni xavf ostiga qo'yishi mumkin.

O'rmon kesishlar, huquqsiz foydalanish holatlari va boshqa antropogen omillar hududdagi tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yer degradatsiyasi, yaylovlarning haddan tashqari kengayishi va iqlim o'zgarishi bioxilma-xillikka tahdid soladi.

Tumandagi ekotizimlarni barqaror boshqarish, monitoring va himoya choralarining yetishmasligi muammolarni yanada oshiradi.

Xulosa: Shunday qilib, Yakkabog' tumanidagi bioxilma xillik tabiiy sharoitlarining xilma xilligi tufayli boy, lekin inson faoliyati, sug'orish tizimlarining noto'g'ri boshqarilishi va aholining ekologik bilim darajasining pastligi tufayli tahdid ostida. Shu sababli, ilmiy asoslangan monitoring tizimini joriy etish, maktab va oliy o'quv yurtlarida ekologik modullarni kengaytirish, fermer xo'jaliklariga barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini qo'llash bo'yicha grantlar ajratish kerak. Faqat shunday yondashuv orqali Yakkabog'ning noyob va o'ziga xos tabiiy boyliklari kelajak avlodlarga yetkaziladi.

Yakkabogʻ tumani tabiiy sharoitining oʻziga xosligi, togʻ va vodiylarning bir-biriga tutashganligi tufayli bu hududda oʻsimlik va hayvonot dunyosining boy bioxilma-xilligi shakllangan. Tuman hududida noyob oʻsimliklar, dorivor butalar, yovvoyi hayvonlar va qushlarning koʻplab turlari uchraydi. Shu bilan birga, oxirgi yillarda antropogen omillar — oʻrmonlarning kesilishi, chorvachilikning haddan tashqari kengayishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim oʻzgarishlari — bu tabiiy xilma-xillikka salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Shu bois Yakkabogʻ tumanida bioxilma-xillikni asrab-avaylash, noyob turlarni saqlab qolish va tabiiy muhitni barqarorlashtirish dolzarb masalaga aylangan. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik nazoratni kuchaytirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish orqali bioxilma-xillikni saqlab qolish mumkin.

### **Taklif va tavsiyalar**

1. Qoʻriqlanadigan hududlar sonini koʻpaytirish: Yakkabogʻ tumanida mavjud tabiiy hududlarni oʻrganib, noyob oʻsimlik va hayvon turlari yashaydigan joylarda yangi qoʻriqxonalar tashkil etish zarur.
2. Ekologik monitoringni yoʻlga qoʻyish: Hududdagi bioxilma-xillik holatini muntazam kuzatib borish, ekologik monitoring tizimini yaratish tavsiya etiladi.
3. Aholining ekologik ongi va madaniyatini oshirish: Maktab va kollej oʻquvchilari, mahalliy aholiga ekologik taʼlim berish, bioxilma-xillikni muhofaza qilish boʻyicha targʻibot tadbirlarini koʻpaytirish lozim.
4. Barqaror qishloq xoʻjaligini rivojlantirish: Kimyoviy oʻgʻit va pestitsidlardan foydalanishni kamaytirish, ekologik toza dehqonchilik usullarini joriy etish zarur.
5. Noyob turlarni koʻpaytirish va qayta tiklash ishlari: Yoʻqolish xavfi ostida turgan oʻsimlik va hayvonlarni sunʼiy yoʻl bilan koʻpaytirish, ularni tabiiy muhitga qaytarish boʻyicha ilmiy ishlarni kengaytirish kerak.

6. Mahalliy aholining ishtirokini ta'minlash: Bioxilma-xillikni saqlash dasturlariga fuqarolarni, fermerlarni va jamoat tashkilotlarini jalb etish samarali natija beradi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. -- Toshkent "O'zbekiston", 2022. – 420 b.
2. Davlat statistika qo'mitasi. "Qishloq xo'jaligi yerlari bo'yicha statistik ma'lumotlar"-Toshkent 2024.
3. Mamatov A. Biogeografiya ma'ruzalar matni. Qarshi – 2010
4. Safarov I. B., Raxmonov A. R. Biogeografiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar //Экономика и социум. – 2025. – №. 1-2 (128). – С. 428-431.
5. Safarov I. B., Chorshanbiyeva R. A. Qashqadaryo viloyatidagi ekologik-geografik muammolar //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-2 (129). – С. 153-157.